

Erasmus+ grant loyihalari doirasida olinadigan jihozlarni bojxona rasmiylashtiruv tartibi bo'yicha Yo'riqnomma¹

1. O'zbekistondagi Erasmus+ dasturining Oliy ta'limda salohiyatni oshirish (CBHE) loyihalari doirasida sotib olinadigan jihozlarni bojxona rasmiylashtirushi, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari (OTMr) tomonidan konsortsium qarori orqali loyiha koordinatori yoki har bir ishtirok etuvchi OTM tomonidan individual ravishda amalga oshiriladi.

2. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining (OO'MTV) Investitsiya loyihalarini shakllantirish va monitoring qilish Boshqarmasi, grantlar faoliyatini, shu jumladan Erasmus+ loyihalari bo'yicha jihozlarni sotib olish, loyiha koordinatorlariga yordam berish, bojxona rasmiylashtirushi va qabul qilingan jihozlarni barcha ishtirok etuvchi OTMlarga yetkazib berishini ta'minlaydi;

3. Erasmus+ CBHE grant loyihalari doirasida olinadigan jihozlar, loyiha koordinatori/OTM rahbariyati tomonidan qabul qilib olinishi lozim;

4. Loyerha koordinatori loyiha doirasida olingan jihozlarni yetkazib berish va bojxona rasmiylashtirushi uchun mas'ul shaxs tayinlanishi kerak.

5. Loyerha koordinatori, O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining (ITSV) xulosasini, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasiga (DBQ) yuborishlarini so'rab Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV)ga quyidagi keltirilgan hujjatlarni ilova qilgan holda murojaat qilishlari lozim:

1. Mas'ul xodimning passport ma'lumotlari (passport nusxasi);
2. Jihozlarning ta'rifi;
3. Pasport / loyiha tushunchasi (kontseptsiyasi);
4. Loyihaning Grant shartnomasi;
5. Loyerha doirasida olingan jihozlarning oxirgi oluvchilar bo'yicha ma'lumot;
6. Yuklarning bojxona deklaratsiyasi.

¹ Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (ITSV), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (OO'MTV) va Erasmus+ milliy ofisiining (NEO) mas'ul vakillari va Respublikaning bir qator OTMlardagi loyiha koordinatorlari bilan hamkorlikda 2020 yil may oyida tasdiqlangan.

6. OO'MTV ro'yhatga olish va ma'lumotlarni qayta ishlash natijalariga ko'ra, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligiga yuqorida keltirilgan barcha hujjatlarni ilova qilgan holda, tegishli jihozlarni loyiha doirasida texnik yordam uchun olinganligi to'g'risidagi xulosani olish uchun so'rov xatini yuboradi;

7. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi qabul qilingan hujjatlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqqan holda, tegishli xulosani tayyorlagandan so'ng uni Davlat bojxona qo'mitasiga yuboradi, shuningdek, OO'TMV va loyiha koordinatorlarini xabardor etish maqsadida ularga nusxa yuboriladi;

8. Amaldagi qonunchilikga, shuningdek ushbu xulosaga muvofiq Davlat bojxona qo'mitasi yuklarni bojxona rasmiylashtiruvini, bojxona to'lovlari, qo'shimcha qiymat solig'I (QQS) va aktsiz soliqsiz rasmiylashtiradi;

9. Bojxona rasmiylashtirushi (yuk deklarantlari uchun to'lov), yuklarga ishlov berish va saqlash, shuningdek uni sertifikatlashtirish bilan bog'liq boshqa xarajatlar amaldagi qonun hujjatlarga, loyiha koordinatori va jihozlarni yetkazib beruvchi o'rtaсидаги kelishuvlarga muvofiq qoplanishi belgilangan;

10. Loyiha koordinatori Grant shartnomasiga muvofiq olingan jihozlarni loyihaning boshqa ishtirokchi OTMlariga taqsimlash va yetkazib berilishini ta'minlanishi lozim.